



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> September 2025

---

### SIZ INKLYUZIV TA'LIM TARAFDORIMISIZ?

Muslimaxon Saydiakromova Saydiaxror qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Special Pedagogy fakulteti talabasi

saydiaxrorovnam@gmail.com

+998 88 199 07 26

#### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada , umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'limning joriy qilinishi va O'zbekistonda inklyuziv ta'limning qo'llanishi, imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida ta'lim olishi hamda ularga yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, nogiron bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish

#### **Аннотация:**

В данной статье приведены сведения о внедрении инклюзивного образования в общеобразовательных школах и использовании инклюзивного образования в Узбекистане, обучении детей с ограниченными возможностями здоровья наряду со здоровыми детьми, а также предоставлены сведения об условиях, созданных для них.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, дети-инвалиды, здоровые дети, равные права, возможность, ограничение, специалист, педагог, закон, развитие.

#### **Annotation:**

In this article, there is information about the introduction of inclusive education in general secondary schools and the use of inclusive education in Uzbekistan, the education of children with disabilities alongside healthy children, and the conditions created for them. information is provided.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> September 2025

**Key words:** Inclusive education, disabled children, healthy children, equal rights, opportunity, limitation, specialist, teacher, law, development

Inklyuziv ta'lim — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir. Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limalohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> September 2025

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ4860-son qarori bilan tasdiqlangan "2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi: - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar. SHuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi: - inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish; - o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish choratadbirlari. Shuningdek ushbu qaror bilan quyidagi me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi: - Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom; - Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom; - Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom. Ushbu qonunosti xujjatlarida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi, rehabilitatsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda erkin, qulay va xavfsiz harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy me'yorlar belgilab qo'yildi. Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> September 2025

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Nogironlarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, Respublika ta'lim markazi va YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o'tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus ta'lim tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta'lim muassasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta'limi ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatlari o'zgarib boshladi. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, kasb-xunarga yo'naltirish, jamiyatga uyg'unlashtirish masalalari davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi. Chunki O'zbekistonda taraqqiyotning besh tamoyilidan birikuchli ijtimoiy siyosat maqsadli yo'lga qo'yilganligi bois, aholining ko'makka muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash huquqiy jihatdan kafolatlangan. Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi sa'y-harakatlar, korreksion va reabilitatsion ishlar natijasida oxirgi besh yilda 500 nafarga yaqin mana shunday o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytishi ta'minlandi. Hozirda 5900 dan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim bilan 64 ming 700 nafarga yaqin o'quvchilar qamrab olingan". O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020- 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha 2020-2021 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, 2023-2025 yillarda inklyuziv ta'lim tizimi 51 foiz umumta'lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta'lim shakliga 40 foiz imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi. Integratsiyaning ikki turini ajratib ko'rsatish kerak: ta'lim va ijtimoiy. Ta'lim integratsiyasi - bu inklyuziya, ya'ni "inklyuziv ta'lim" bo'lib, nogiron bolani bitta maktabga kiritishni ta'minlaydi. Ta'lim



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> September 2025

muhiti normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan. Ijtimoiy integratsiya bolaning jamiyatga qo‘shilishi, ya’ni uning ijtimoiylashuvini o‘z ichiga oladi.

Inklyuziv ta’limning muammolari. Ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha davlat normativ xujjatlarida qayd qilinmaganligi; Nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat; Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosi; Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko‘rinmaslik muammosi; Moddiy mablag‘ muammolari; Ta’lim muassasalarini moslashtirish; Sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi; Kambag‘allik; Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish; Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi; Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar; Kadrlar masalasidagi muammolar. Haqli savol tug‘iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta’lim tizimiga o‘tishga qanday zaruriyat bor? Darhaqiqat, bu ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta’lim tizimining nafli jixati juda ko‘p ular sirasiga qo‘yidagilar kiradi:

Inklyuziv ta’lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;

Inklyuziv ta’lim barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi;

Kamsitishlarni oldini oladi;

Inklyuziv ta’lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta’limning prinsiplari: 1. Insonning qadr qimmatini, uning qobiliyati va yutuq‘iga bog‘liq emas. 2. Har bir inson o‘ylash va xis qilish qobiliyatiga ega. 3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega. 4. Har bir kishi bir-biriga muxtoj. 5. Shaxsning to‘liq va haqiqiy ta’lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi. 6. Hamma kishilar o‘z tengdoshlarini qo‘llab quvvatlashga muxtoj. 7. Hamma ta’lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir. 8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama ko‘chaytiradi. Inklyuziv ta’lim tizimi qo‘yidagi ta’lim muassasalarni o‘z ichiga oladi; maktabgacha umuta’lim, umu o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-xunar va oliy ta’lim. Bu ta’lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta’lim olishi va kasb-xunarga tayèrlashda ularning o‘rtasidagi to‘siqlikni bartaraf etib ochiq ta’lim muxitini yaratishdan iborat. Umumta’lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Inklyuziv ta’lim tizimi integratsiyalashgan ta’lim



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> September 2025

tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakter dasturi bilan farqlanadi. Bolaning tarbiya va o‘quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o‘zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro‘y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to‘g‘ri ketmaketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog‘ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g‘oyani ilgari suradi. Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o‘simlikka o‘xshatadi. «Uning ingichkagina ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o‘zo‘zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi. Bunday o‘simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagi sharoitda taraqqiyotning cho‘qqisiga yetmasdan, bujmayib so‘lib qoldi», deydi. Psixolog olimi L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta‘lim tizimida ta‘lim-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo‘llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta‘lim tizimida ta‘lim-tarbiya ishlarining samarali bo‘lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim. Inklyuziv ta‘lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko‘plab muammolar va to‘siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: Salbiy munosabat; Hamjamiyatda ko‘rinmaslik; Moddiy mablag‘ muammolari; Jismoniy moslashtirish; Sinfdagi o‘quvchilar soni; Qaramlik; Jinsiy belgilarga qarab kamsitish; Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar. Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta‘lim muassasalari tizimida ta‘lim tarbiya olaishlari uchun eng katta to‘siq bo‘lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a‘zolari, o‘qituvchilar, umumta‘lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o‘zlaridagi umumta‘lim muassasalarida ta‘lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto‘g‘ri fikr, ular to‘g‘risida ma‘lumotlarning yetishmasligi, nogiron



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> September 2025

bolalarning chegaralangan muhitda o'rganiligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko'pincha ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar otaonalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko'rsatmaydilar, ro'yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to'g'risida hech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko'plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo'ladilar. Ular to'g'risida hech bir ma'lumotni bo'lmasligi ta'lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.

### **Xulosa:**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim nogiron bolalar ehtiyojlarining xilma-xilligi xizmatlarning uzluksizligi, birinchi navbatda bunday bolalar uchun eng maqbul bo'lgan ta'lim muhiti bilan mos kelishi kerakligini anglatadi. Ushbu printsip barcha bolalar yashash joyidagi maktabning ijtimoiy va o'quv hayotiga qo'shilishi kerakligini bildiradi. Inklyuziv maktablar chet eldagi odatiy maktablardan farqli ravishda ta'lim yutuqlariga erishishga qaratilgan. Inklyuziv maktabning maqsadi barcha o'quvchilarga (ularning aqliy va jismoniy holatlaridan qat'iy nazar) ijtimoiy hayotni yakunlash, jamoada, jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatini berish, shu orqali bolalarga har tomonlama ta'sir va yordam ko'rsatish. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda ham inklyuziv ta'limga bo'lgan e'tibor katta. Nogiron bolalarni o'qitish bo'yicha xorijiy tajribani tahlil qilgandan so'ng shuni ta'kidlash mumkinki, bir qator mamlakatlarda bunday bolalarni birlashtirish muhimligi to'g'risida aniq kelishuv mavjud. Qaysidir mamlakatni olmaylik, barcha mamlakatda hech bir bola davlat e'tboridan chetda qolmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr. O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.
3. X. N. Muzaffarova, D. Tangirova „Inklyuziv ta'lim“. [library.samdukf.uz](http://library.samdukf.uz). Qaraldi: 10- noyabr 2022-yil.



# E CONF SERIES



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

20<sup>th</sup> September 2025

4. R.Sh. Shomaxmudova ,, Maxsus va inklyuziv ta'lim xalqaro va milliy tajribalar''- o'quv uslubiy qo'lanma. Toshkent 2011.

5. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.